

**MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA MUSIQAVIY RITMIK HARAKATLAR**

*Guliston Davlat Pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti  
“Musiqa ta’limi” ta’limi yo ‘nalishi 3-kurs talabasi  
Esanova Xurshida O’ralbek qizi*

**Annotatsiya.** Musiqa darslari jarayonida musiqaviy ritmik harakatlarni bajarish faoliyati o‘quvchilaming musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuy’usi va asar badiiyatini harakatlarda ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Bu, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini uchun nihoyatda zarurdir. Chunki yosh bolalarning me’yoriy rivojlanishlarida har qanday harakat turlari muhim rol o‘ynaydi. Bu borada musiqa darslari mazmunida katta imkoniyatlari mavjud va musiqa darslari o‘zining mazkur xususiyatlari bilan ham boshqa fanlardan ijobiy farq qiladi.

**Kalit so‘zlar.** Qadam tashlash, qarsak chalish, raqsga tushish, turli qo‘l harakatlari, dirijyorlik qilish.

**МУЗЫКАЛЬНО-РИТМИЧЕСКИЕ ДВИЖЕНИЯ НА УРОКАХ МУЗЫКИ.**

**Абстрактный.** Деятельность по исполнению музыкально-ритмических движений на уроках музыки важна для развития музыкальных способностей учащихся, в частности чувства ритма и умения выражать в движениях художественность произведения, а также для их физических способностей. разработка. Особенно это важно для учащихся начальной школы. Потому что любой вид движения играет важную роль в нормальном развитии детей раннего возраста. В связи с этим открываются большие возможности в содержании уроков музыки, и уроки музыки этими особенностями положительно отличаются от других предметов.

**Ключевые слова.** Шагание, хлопки в ладоши, танцы, различные движения руками, дирижирование.

**MUSICAL RHYTHMIC MOVEMENTS DURING MUSIC LESSONS**

**Abstract.** The activity of performing musical rhythmic movements in the course of music lessons is important for the development of students' musical abilities, in particular, the sense of rhythm and the ability to express the artistry of the work in movements, as well as for their physical development. This is especially important for elementary school students. Because any type of movement plays an important role in

the normal development of young children. In this regard, there are great opportunities in the content of music lessons, and music lessons are positively different from other subjects with these features.

**Keywords.** Stepping, clapping, dancing, various hand movements, conducting.

### **Kirish**

Ma'lumki, jismoniy tarbiya darsidan tashqari boshqa fanlar darslari davomida o'qituvchi vaqtı-vaqtı bilan o'quvchilarning ruhiyatini hisobga olib, dars mazmuni va bolalarning fikrlash jarayonini to'xtatib harakatli pauzalar o'tkazadilar. Musiqa darslari bundan nafaqat istisnodir, balki musiqali harakat turlari o'rganayotgan asarning xarakteri, badiiy obrazlari, ifodaviy va ijro xususiyatlarini chuqur his etish hamda ulami ma'lum darajada ijodkorona ifodalash uchun ham muhimdir. Ana shunda dars boshidan oxirigacha uzilmaydi va mantiqan bir butunlikni tashkil etadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metod**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, obyektivlik va deduktiv usullaridan foydalanildi. Insoniyat taraqqiyotida musiqa san'atining ahamiyati obyektiv ochib berildi. Tohirjon Ortikovning "Musiqa o'qitish metodikasi", G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.I.Xodjayevalarning "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va matab repertuarlari" kitoblari metodologik manba bo'lib belgilandi.

### **Muhokama va natijalar**

O'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan dunyoga dong taratgan. Ammo maktab ta'lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajadaligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli musiqa o'quvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi ya'ni ijro eta olishi va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi zarurdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yurish, yugurish, sakrashda harakat koordinasiyalari yaxshi shakllangan bo'ladi. Ular o'z tashabbuslari va jon dillari bilan turli ashyolar-koptok, tayoqcha, lentalar yordamida yoki oyoqlarini tappillatish, qo'llarini siltash bilan ham ko'plab tanish musiqalariga harakatlar tuza oladilar. Musiqa bilan harakatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda bolalarning ritmni his qilishi faollashadi, ularning harakati musiqaning mazmuniga uyg'unlashadi. Vaqt o'tishi bilan boladagi harakat faoliyatining xususiyati va mazmuni ancha o'zgaradi. Bolalar shu davrda har xil harakatlar, eng oddiy ermak o'yinlar musiqa bilan harakatlar hamda to'g'ri harakat qilib yurishning ayrim usullari katta o'rin tutadi. Bolalarda harakat faoliyati takomillashib boradi, syujetli rollarga bo'linib o'ynaladigan harakatli o'yinlar shakllanadi. O'quvvachining vazifasi bolalar harakat faoliyatini shunday tashkil etishdan iboratki, ular maktab faoliyati davrida rivojlantirishlari zarur bo'ladigan harakatlarning uyg'unlashtirish ma'nodagi ancha murakkabroq yangi shakllarini tobora faol ravishda egallab, o'zlarida bunday zarur

sifatlarini shakllantirishi uchun tinmay mashq qilib borsinlar. Bolalarning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligi tufayli ularni turli harakatlarga o‘rgatish vaqtida ko‘rgazmalilik katta ahamiyat kasb etadi. Maktab bolalari aniq fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Harakatlarni tovush orqali, masalan, musiqa, qo‘schiq, sanoq o‘yinlar yordamida tartibga solinishi mashq xususiyatlarini, uning sur‘ati va maromini ifoda etib, bolalarda ko‘tarinki ruh paydo qiladi. Dars mazmunida quyidagicha harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: a) marsh musiqalari ostida qadam tashlash, yugurish, sakrash; b) raqs elementlarini bajarish; v) musiqali o‘yinlar o‘tkazish; g) musiqaning xarakterlari (registrleri, uchtovushliklari, kuy tovushlarining gorizontal-tizimli tuzilmasi, ritm-usul tuzilmalari) ni qo‘l va tana harakatlari bilan ifodalash; d) musiqa o‘lchovlarini oddiy taktlash (dirijyorlik qilish) va boshqalar.

Raqs va musiqali ritmik harakatlami bajarishda musiqa jo‘rligining ijro turlari va cholg‘u asboblari namunalaridan to‘g‘ri foydalanish lozim. Yana harakatlarni amalga oshirishda musiqa fonogrammasi va o‘qituvchining jonli ijrosi ham qo‘l keladi. Jonli ijro ham fortepianoda va ham cholg‘u asboblarida bajarilsa bolalar ko‘proq qiziqadi. Raqs namunalarini bajarganda doira chertib usul berish yaxshi natija beradi. Zotan, o‘zbek cholg‘u asboblaridan to‘g‘ri foydalanish darsning milliylik asoslarini tashkil etish uchun ham zarurdir.

Mashqlarda alohida elementlar o‘zlashtiriladi: Ritmik ravishda chapak chalishlar, raqs harakatlari shular jumlasidandir. Birinchi darslar davomida harakatlaming musiqa xarakteriga bog‘lanishi unchalik ham qovushimli chiqmaydi, ammo o‘qituvchi shuni ham baholab o‘tishi kerak.

Ritmik harakatlami bajarishda harakat matn bilan aytib turilsa, oldindan ko‘rsatishni talab qilinmaydi. Bolalar harakatlarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun har bir bandni ikki uch marta takrorlash kifoyadir. Yaxshi musiqa asari emotsiyonal ko‘tarinkilikni, o‘ynash, raqsga tushish ishtiyoqini uyg‘otadi. Birinchi sinfda musiqa faoliyatining har xil turlari shakllana boshlaydi. Qo‘schiq aytishdagi uyg‘unlik va musiqa jo‘rligidagi harakatlarda elementar ritmikliklar ham ko‘rina boshlaydi. Ular yurish va yugurish ritmining yorqin ifodalangan dinamik va temp o‘zgarishlarini, asarning ikki qismli shaklini harakatlar bilan ifodalay oladilar.

Bolalar uncha murakkab bo‘lmagan gimnastik harakat, raqs va obrazli hikoyalarni o‘rganishda musiqa va harakat birligi rivojlantiriladi. Birinchi sinfda birinchi yarim yillikda qo‘llarda bayroqchalarni ushlab birgalikda va yakka tarzda davra bo‘ylab, marshga xos qadam tashlab yurishga, yuqori va past registrdagi jarangdorliklarni farqlashga va unga muvofiq harakatlarni bajarishga o‘rgatib boriladi. Harakatlarni almashtirish yo‘li bilan musiqaning ikki qisqli shaklini aniq ifodalashga, o‘yinda qatnashuvchi personajlarning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlarini ifodalab ko‘rsatishga o‘rgatiladi. Ikkinci yarim yillikda asarlar mazmuniga ko‘ra bayroqchalar

bilan aniq ritmda harakat qilib, musiqa qismlarini boshlanishi va tugallanishini ifodalab ko‘rsatish; har xil ashylarni qo‘ldan qo‘lga uzatib, raqs harakatlarini bajarishga o‘rgatib boriladi. Ikkinci sinfda asosiy vazifa turli xarakterdagi musiqa sadolari ostida ritmik harakatlami bajarish, o‘yin va raqs harakatlarini Lmprovizasiya qilishga qaratiladi. Birinchi yarim yillikda turli mashqlar, polkalar, raqslar orqali bolalarni musiqa. ritmiga muvofiq yengil qadam tashlash malakalarini shakllantirishga, asarlar qismlari xarakteriga ko‘ra harakat turlarini almashtirish, yugurish va aylanishga, yengil va ritmik sakrashga o‘rgatib boriladi. O‘zbek xalq kuylari vositasida milliy raqsga xos harakatlar qilish ham shakllantiriladi. Ikkinci yarim yillikda marshlar bilan shaxdam qadam bilan aniq ritmda yurishga, boshqa tanlangan asarlarga chaqqon chopishga, nafis harakatlanishga va saflanishni almashtirishga ham o‘rgatib boriladi. Birinchi va ikkinchi sinfda yil yakunida dasturdagi barcha materiallar takroriy mustahkamlanadi. Mustahkamlashda bolalarning iltimosi va xohishlari ham qondiriladi. Uchinchi sinfda musiqa bilan harakatning ifodaliligi, raqs va o‘yinlarda improvizasiya harakatlarini aniq bajarish kabi ijrochilik malakalari shakllantiriladi. Birinchi yarim yillikda tavsiya qilingan asarlar mazmuniga ko‘ra aniq-chaqqon ritmik yurishga, yengil, chaqqon chopishga, mayda qadam tashlab yurishga o‘rgatiladi. Oyoqda oldga tashlab sakrash; qo‘llarni ohista, ravon, vals ohangida harakat qildirishlarini ko‘rsatish; o‘zbek xalq kuylariga yengil ritmda sakrash va boshqa harakatlar rivojlantiriladi. Ikkinci yarim yillikda ham davlat dasturida ko‘rsatilgan materiallar asosida rang-barang harakat sxemalari shakllantiriladi. Bolalarda raqslar orqali harakatlar yo‘nalishlarini musiqa jumlalariga mos holda almashtirib, yengil va nozik harakat qilishga; musiqaning raqsga xos xarakterini ifodalashga; oddiy va mayda qadamlami bir-biri bilan navbatma-navbat almashtirish ham o‘rgatiladi. Yil oxirida bolalar yuqoriga sakrab, oyoqlami galma-gal oldinga tashlash, yonboshga sakrab chopish, o‘zbek raqs harakatlari, qo‘llarning ravon harakati, bir maromda chapak chalish, bir-biriga taqlid qilmasdan mustaqil harakat qilish kabi harakatlami bajarishlari zarur. To‘rtinchi sinf bolalari musiqa faoliyatining barcha turlarida faol ishtirok etadi. Ular musiqa obrazlarini yaxshi tushunishadi, musiqaning turlicha xarakteri, dinamikasi va registrlariga mos ifodali va erkin harakat qilishadi. Musiqaning kirish qismi yangragandan so‘ng harakatni mustaqil tarzda boshlashni bilishadi. O‘quvchilami yil davomida tantanovor, bayramona yoki yumshoq, ravon yurishni, harakat xarakterini o‘zgartira turib ritmli tarzda bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa sakrashni, kichik xalq raqslari va bolalar o‘yinlarini safda yurib o‘ynashni, o‘yinli qo‘sish qosida insenirovkalar qo‘yish va o‘yinlar uchun harakatlarning yangi variantlarini o‘ylab topishni, raqs harakatlari elementlarini qo‘sib olib borishni musiqa xarakteriga muvofiq ravishda bajarishga o‘rgatiladi. Yil oxirida bolalar musiqa, musiqali obrazlarning turli-turnan xarakteriga mos holda ma’noli va ritmik harakat qilishni, polka, o‘zbek xalq raqslariga oid o‘yin harakatlarini bajarishni, raqsga tushish va qizlar bilan harakatlar qilishni ma’noli hamda ritmik holda

ijro etishni uddalay olishlari kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqali o‘yinlarga ham juda qiziqadilar. Bolalar uchun berilgan ko‘p asarlar mazmunida o‘yin metodidan foydalanish mumkin. Masalan, «Xivich otim o‘ynatib» asarining chaqqon, jadal va sakrama ritmlari, shuningdek, o‘zbek xalq kuyi «Asp bo‘laman» ohangi ostida bolalar qo‘llarini oldilariga musht qilib gorizontal ko‘tarib, joylarida sakrab «ot choptirish» o‘yinini jon dillari bilan bajaradilar.

### **Xulosa va takliflar**

Xulosa qilib aytganda, musiqiy-ritmik harakatlar bolalarda vujudga keladigan aqliy-jismoniy toliqishni tarqatish, bolalarni musiqa darslariga qiziqtirish hamda darsni mazmunan boyitish uchun ham muhimdir. Milliy musiqamiz madaniyatida raqs san’ati muhim o‘rin tutadi. Musiqa raqs to‘qimasidan joy olib, uning his-tuyg‘uga ta’sir etish tizimini belgilab beradi. Raqs musiqasi o‘quvchilarning darsda faolligini oshiradi. Eng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarda musiqa iqtidori, ayniqsa ritm tuyg‘usi faol rivojlanadi va xususan, har bir bolaning musiqa uquv qobiliyatlari darajasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Dars jarayonida bajarilgan har bir harakat turining badiiy-ifodaviy sifatini belgilash va sinfda muhokama etib baholash, faol o‘quvchilami ruhlantirib borish lozim. Yaxshi o‘rganilgan raqs namunalarini chorak oxirida o‘tkaziladigan sinf konsertiga mo‘ljallab qo‘yish mumkin.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. "Musiqa o‘qitish metodikasi"-kitobidan,T.Ortiqov
2. "Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuarlari"-kitobidan, G.M.Sharipova, D.F.Asanova, Z.I.Xodjayevalar
3. Ibrohimov O.A., Xudoyev G‘. M. "Musiqa tarixi" Toshkent 2018-yil.
4. Ta’lim taraqqiyoti, 6-maxsus son. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1985 y.
5. Yo‘ldosheva S.X. O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limning rivojlanishi. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1985 y.
6. <https://odam.uz/Qiziqarli/musiqaning-inson-organizmi-va-sogligiga-bolgan-tasiri-> saytidan
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqaning-hayotimizdagi-o-rni-> saytidan